

**“YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: GLOBAL
TAJRIBALAR VA O‘ZBEKISTON IMKONIYATLARI”**

Djo’rayeva Lola Abdugabborovna

Termiz Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Xodjamurodova Sevinch Nuriddinovna

Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XXI asrda global barqaror rivojlanishning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bu model tabiiy resurslardan ratsional foydalanish, uglerod izini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va barqaror innovatsion texnologiyalardan foydalanish tamoyillariga asoslanadi. Maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi, xalqaro tashkilotlar (UNEP, OECD, World Bank) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar hamda ularning amaliy natijalari atroflicha tahlil qilinadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqida 2050 yilgacha “nol emissiya” strategiyasi, Yaponiyada “Yashil innovatsiyalar strategiyasi”, Janubiy Koreyada “Green New Deal”, Xitoyda “Two Carbon Goals” kabi dasturlar iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu mamlakatlar energetika samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini ko‘paytirish va oqilona resurs boshqaruvini joriy qilish orqali yuqori iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni birlashtira oldi.

Ammo yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qator muammolar ham mavjud: moliyalashtirish yetishmasligi, texnologiyalarning qimmatligi, qonunchilikdagi bo‘shliqlar, aholi va biznesning yetarli xabardor emasligi, ekotizimlarning zaifligi. Maqolada mazkur muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni xalqaro tajriba asosida hal etish mexanizmlari ham atroflicha yoritiladi. Shu bilan birga, maqola yashil iqtisodiyotning O‘zbekiston uchun dolzarb yo‘nalishlarini ham yoritadi: energiya samaradorligi, yashil sanoat, yashil moliya, ekologik transport, suv resurslarini boshqarish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va boshqalar. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda xalqaro ilg‘or tajribalarni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar beriladi.

Концепция «зелёной экономики» в XXI веке стала ключевым направлением устойчивого развития многих государств мира. Она основывается на принципах эффективного использования природных ресурсов, снижении углеродного следа, экологической безопасности, внедрении инновационных и

низкоуглеродных технологий. В статье рассматриваются теоретические основы зелёной экономики, международный опыт развитых и развивающихся стран, а также проекты и рекомендации международных организаций (ЮНЕП, ОЭСР, Всемирный банк).

Анализ показывает, что такие программы, как «EU Green Deal», «Green Innovation Strategy» (Япония), «Korea Green New Deal», а также «Two Carbon Goals» (Китай), существенно трансформировали экономику данных стран. Они смогли добиться роста доли возобновляемой энергетики, повышения энергоэффективности, снижения выбросов и модернизации производственных секторов.

Тем не менее, переход к зелёной экономике связан с рядом проблем: недостаток финансирования, дороговизна технологий, нехватка квалифицированных кадров, пробелы в законодательстве, слабая экологическая культура населения и бизнеса. В статье подробно анализируются причины этих трудностей и возможные пути их решения на основе международной практики.

Кроме того, приводятся выводы и рекомендации по внедрению зелёной экономики в Узбекистане: зелёная энергетика, устойчивый транспорт, зелёные финансы, рациональное управление водными ресурсами, цифровизация экологического мониторинга.

The concept of the green economy has emerged as one of the most critical pillars of sustainable development in the 21st century. It emphasizes efficient resource use, reduced carbon emissions, environmental protection, and the deployment of eco-innovative technologies. This paper explores the theoretical foundations of the green economy, examines global best practices, and evaluates strategies implemented by leading countries such as the European Union, Japan, South Korea, and China.

Evidence shows that initiatives like the EU Green Deal, Japan's Green Innovation Strategy, Korea's Green New Deal, and China's "Two Carbon Goals" have significantly reshaped national economies. These countries successfully increased renewable energy shares, enhanced energy efficiency, reduced emissions, and stimulated sustainable industrial development.

However, the transition to a green economy poses challenges: limited financing, high technology costs, gaps in legislation, low environmental awareness, and institutional bottlenecks. This article examines these barriers and proposes solutions derived from international experience.

The paper also highlights key strategic directions for Uzbekistan: green energy transition, sustainable industry, green finance mechanisms, eco-transport solutions, climate adaptation strategies, and digital environmental monitoring systems.

Kalit soʻzlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, uglerod chiqindilarini kamaytirish, aylanma iqtisodiyot.

Green economy, sustainable development, eco-innovation, carbon reduction, circular economy.

Зелёная экономика, устойчивое развитие, экологические инновации, сокращение выбросов углерода, циркулярная экономика.

Kirish

XXI asrda global iqtisodiyot va atrof-muhit oʻrtasidagi muvozanat masalalari tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Iqtisodiy oʻsish va ekologik barqarorlik koʻpincha qarama-qarshi maqsad sifatida koʻrilgan boʻlsa-da, soʻnggi yillarda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ushbu muammoni hal qilish yoʻli sifatida eʼtirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni birlashtirishga qaratilgan innovatsion modeldir.

Ushbu modelning asosiy tamoyillari: resurslardan oqilona foydalanish, past uglerodli texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishdir. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati uchun xalqaro tajriba va ilgʻor davlatlar amaliyoti muhim omil hisoblanadi.

Maqolada Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi tajribalar, uning Oʻzbekiston sharoitida joriy etilishi boʻyicha muammolar va yechimlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola xalqaro tashkilotlar (UNEP, OECD, World Bank) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar va tavsiyalarni ham oʻz ichiga oladi, bu esa Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini shakllantirishda ilmiy asos yaratadi.

ASOSIY QISM.

1. Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari

Yashil iqtisodiyot (Green Economy) — bu iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy farovonlikni oshirish bilan birga ekologik tanazzulni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. UNEPning 2011-yilgi “Towards a Green Economy” hisobotiga koʻra, yashil iqtisodiyot resurs samaradorligi, past uglerodli texnologiyalar, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- Resurslardan oqilona foydalanish — tabiiy resurslarni qisqa va uzoq muddatda samarali boshqarish.
- Past uglerodli rivojlanish — CO₂ va issiqxona gazlari chiqindilarini keskin kamaytirish.

- Aholi farovonligi — ekologik barqaror ish o‘rinlarini ko‘paytirish.
- Innovatsion yechimlar — energiya samarador uskunalari, qayta tiklanadigan energiya, toza texnologiyalar.
- “Aylanma iqtisodiyot” (Circular Economy) — chiqindilarni resurs sifatida qayta qo‘llash.

OECD (2009) esa yashil o‘shishni “iqtisodiy o‘shishni resurslar va ekologik xavflarni kamaytirgan holda ta’minlaydigan model” sifatida ta’riflagan.

Demak, yashil iqtisodiyot faqat ekologiyani muhofaza qilish emas, balki iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshiradigan tizim hamdir.

2. Xalqaro tajribalar: rivojlangan davlatlar modeli

2.1. Yevropa Ittifoqi — EU GREEN DEAL

EI “Green Deal” strategiyasi 2050 yilga qadar Yevropa qit’asini klimat neytral hududga aylantirishni maqsad qiladi.

Asosiy yo‘nalishlar:

2030 yilga qadar chiqindilarni 55% ga kamaytirish;

2050 yilga qadar “nol emissiya”;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 45% ga yetkazish;

Yashil transport: elektr avtomobillari, vodorod texnologiyalari;

Yashil sanoatni subsidiyalash.

Strategiyaning natijalari:

2010–2023 yillarda EIda uglerod chiqindilari 30% ga kamaydi;

2023 yil oxiriga kelib elektr energiyasining 39% i yashil manbalardan olindi;

5 milliondan ortiq “yashil ish o‘rinlari” yaratildi.

2.2. Yaponiya — Green Innovation Strategy

Yaponiya energetika resurslari cheklanganligi sabab, mamlakat yashil strategiyani texnologik innovatsiyalar asosida amalga oshirdi:

vodorod energetikasi;

intellektual elektr tarmoqlari (Smart Grid);

energiya tejoychi robototexnika;

“Zero Energy Building” standarti.

2022 yilga kelib, Yaponiya energiya samaradorligi bo‘yicha dunyoda eng yuqori beshlikka kirgan.

2.3. Janubiy Koreya — KOREA GREEN NEW DEAL

Bu dastur 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ortidan iqtisodiyotni tiklash va yashil texnologiyalarga o‘tish maqsadida qabul qilindi. Asosiy tarkibiy qismlar:

raqamli iqtisodiyot + yashil iqtisodiyot integratsiyasi;

yashil transport va infratuzilma;

qayta tiklanuvchi energetikaga katta investitsiyalar.

Koreya 2023 yilga kelib, quyosh va shamol energetikasi ulushini 3 barobar oshirdi.

2.4. Xitoy — Two Carbon Goals (2030–2060)

Xitoy dunyodagi eng yirik CO₂ chiqindilaravchi davlat bo'lishiga qaramay, 2030 yilga qadar uglerod chiqindilarining eng yuqori chegarasiga erishish va 2060 yilga qadar klimat neytral bo'lishni maqsad qilgan.

Natijalar:

dunyodagi eng yirik quyosh panellari bozori; elektr avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rin; uglerod savdo bozorini ishga tushirish.

3. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi 3.1. Hindiston

«National Solar Mission» doirasida 2030 yilga qadar 280 GVt quyosh energetikasi quvvati o'rnatilishi rejalashtirilgan.

3.2. Braziliya

Biomassa va bioyolyon energiyasidan eng ko'p foydalanadigan davlatlardan biri.

3.3. Qozog'iston

«Green Economy Strategy 2050» bo'yicha, mamlakat yashil energiya ulushini 30% ga yetkazishni rejalashtirgan.

3.4. Indoneziya

Tropik o'rmonlarni muhofaza qilish va yashil turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu tajribalar rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida tabiiy resurslarni oqilona boshqarish muhimligini ko'rsatadi.

4. Yashil iqtisodiyotga o'tishdagi asosiy muammolar

1. Moliya muammolari — yashil loyihalar qimmat, investitsiya qaytishi uzoq.
2. Texnologiyalar tannarxi yuqoriligi — ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika uskunalari.
3. Qonunchilikdagi bo'shliqlar — ekologik standartlar va ESG talablar yetarli emas.
4. Aholi va biznesning xabardor emasligi — ekologik madaniyat past darajada.
5. Kadrlar yetishmovchiligi — yashil texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar kam.
6. Infratuzilma cheklanganligi — elektr transport uchun zaryad stansiyalari, yashil sanoat zonalari.

Bu muammolarni xalqaro tajriba asosida hal etish mumkin.

Xalqaro tajribaga asoslangan yechimlar:

1. Yashil moliya (Green Finance)
2. Green bonds (yashil obligatsiyalar)
3. Green credit (yashil kreditlar)

- 4.ESG investitsiyalari
5. Carbon market (uglerod bozori)
6. Texnologik transfer

Rivojlangan davlatlardan texnologiyalarni yangillashtirilgan shartlar asosida qabul qilish.

Qayta tiklanadigan energetikani subsidiyalash;

Tariflar, soliq imtiyozlari, kompensatsiyalar;

Ekologik me'yorlarni kuchaytirish;

EI standartlariga yaqinlashtirish;

Aholi va tadbirkorlik uchun ekologik ta'lim;

Treninglar, dasturlar, maktab va OTMlarda o'quv kurslari;

O'zbekiston uchun taklif va tavsiyalar:

Uzbekistan 2023–2050 yillarga mo'ljallangan barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan.

Energetika yo'nalishi - Quyosh va shamol stansiyalarini ko'paytirish; gazdan voz kechib, vodorod energetikasiga o'tish; energiya tejoychi texnologiyalarni majburiy joriy qilish.

Yashil sanoat - chiqindisiz ishlab chiqarish; "aylanma iqtisodiyot" modelini sanoatda joriy etish.

Transport - elektromobil infratuzilma; jamoat transportini to'liq; modernizatsiyalash.

Suv resurslarini boshqarish - tomchilatib sug'orish texnologiyalari; suv tejoychi qishloq xo'jaligi.

Ekologik monitoring - raqamli ekologik nazorat; issiqxona gazlari reestri.

XULOSA

Yashil iqtisodiyot — bu kelajak iqtisodiyotidir. Xalqaro tajriba ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik bir-birini inkor etmaydi. Teskari — ular bir-birini to'ldiruvchi omillardir. Yevropa, Koreya, Yaponiya, Xitoy misolida bu amalda tasdiqlangan.

O'zbekiston ham milliy sharoitlardan kelib chiqib, yashil iqtisodiyotni jadal rivojlantirish imkoniga ega. Yashil energetika, yashil sanoat, yashil transport, yashil moliya — mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi drayverlardir. Maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar amalga oshirilsa, O'zbekistonda ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik o'rtasida namunaviy muvozanat yaratish imkoni paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP, 2011.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Green Growth Studies: A Summary for Policy Makers. Paris: OECD, 2009.
3. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington, D.C.: World Bank, 2012.
4. European Commission. EU Green Deal. Brussels: European Commission, 2019.
5. Government of Japan. Green Innovation Strategy. Tokyo: METI, 2020.
6. Government of the Republic of Korea. Korea Green New Deal. Seoul: Ministry of Environment, 2020.
7. China National Development and Reform Commission. Two Carbon Goals and Climate Policy Reports. Beijing: NDRC, 2021.
8. International Energy Agency (IEA). Renewables 2022: Market Analysis and Forecasts. Paris: IEA, 2022.
9. Barbier, E. The Concept of Green Economy: A Critical Review. Journal of Environmental Economics, 2016.
10. Sachs, J. The Age of Sustainable Development. New York: Columbia University Press, 2015.